

BOJ OLINMAYDIGAN SAVDO BOJXONA REJIMINING TURKIYA DAVLATI TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Lutfullayev Sh.

*Bojxona instituti QTMOF Maxsus fanlar kafedrası katta o'qituvchisi,
tel.: +998 90 355 42 42*

Muxammadov O.

*Bojxona instituti 4-kurs kursanti,
e-mail: muxammadovotabek@gmail.com
tel.: +998 90 710 28 51*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boj olinmaydigan savdo bojxona rejiminining tadqiq etish natijasida optimallashtirish yo'llari hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish masalalari yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *boj olinmaydigan savdo, bojxona rejimi, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona kodeksi, brend tovar, mahalliy mahsulot.*

ОПЫТ ТУРЕЦКОГО ГОСУДАРСТВА ТАМОЖЕННОГО РЕЖИМА БЕСПОШЛИННОЙ ТОРГОВЛИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются пути оптимизации таможенного режима беспошлинной торговли на основе исследований и внедрения передового зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *беспошлинная торговля, таможенный режим, таможенное оформление, таможенный кодекс, брендовые товары, местные продукты.*

THE EXPERIENCE OF DUTY-FREE TRADE CUSTOMS REGIME OF THE TURKIYE AND PROSPECTS OF IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

Abstract. *This article highlights the ways to optimize the customs regime of duty-free trade as a result of research and the implementation of advanced foreign experiences.*

Key words: *duty-free, customs procedure, customs clearance, customs code, branded goods, local products*

Kirish

Yangi O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda va uning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda boj olinmaydigan savdo do'konlari faoliyati muhim o'rin tutadi.

Tarixan turli davlatlarda turli xususiyatlarga ega bo'lgan boj olinmaydigan savdo do'konlari davlat xazinasini to'ldirish maqsadida turli xil nomdagi tovarlar savdosi amalga oshirilgan.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo munosabatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish strategik vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ushbu jarayonda boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi alohida o'rin tutadi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi – bu xalqaro savdoni erkinlashtirish, xorijiy valyuta tushumini ko'paytirish hamda turistlar va yo'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maxsus bojxona rejimi hisoblanadi. Ushbu rejim orqali davlatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash bilan bir qatorda, xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va bojxona boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida boj olinmaydigan savdo bojxona rejimini rivojlantirish borasida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2024-yildagi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga alohida e'tibor qaratildi, qonunchilik bazasi takomillashtirildi, xalqaro standartlarga moslashtirildi. Bundan tashqari, O'zbekistonda turistlarni jalb qilish, xorijiy valyuta tushumini ko'paytirish hamda bojxona nazoratini samarali tashkil etish maqsadida boj olinmaydigan savdo do'konlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasida boj olinmaydigan savdo bojxona rejimining huquqiy asoslari, joriy holati va xalqaro tajribasini o'rganish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Dunyoning ko'plab davlatlarida boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi xalqaro aeroportlar, chegara o'tish punktlari va portlarda keng qo'llaniladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida boj olinmaydigan savdo do'konlari faoliyati 2008/118/EC direktivi asosida tartibga solinadi.

Turkiya

Turkiya, geografik joylashuvi va turizm sohasidagi ahamiyati bilan duty-free savdolarini rivojlantirgan davlatlardan biridir. Turkiya duty-free do'konlari asosan aeroportlarda va chegara punktlarida faoliyat yuritadi. Bu do'konlar orqali

sayohatchilar soliq va bojxona to'lovlarisiz turli mahsulotlar xarid qilish imkoniyatiga ega. Turkiyada duty free savdolari **Setur Duty Free, TAV Duty Free, Çelebi Duty Free va BTA Duty Free** kabi yirik kompaniyalar boshqaradi. Ushbu kompaniyalar aeroportlarda va chegara punktlarida duty free savdolari tashkil etadi.

Turkiyaning duty free do'konlarida quyidagi mahsulotlar keng tarqalgan:

- **Kosmetika va parfyumeriya** (masalan, Lancôme, Dior, Estée Lauder, Shiseido)
- **Brend kiyim-kechak va aksessuarlar** (Louis Vuitton, Gucci, Prada, Burberry)
- **Spirтли ichimliklar** (rakı, viski, vino, xushbo'y ichimliklar)
- **Tamaki mahsulotlari** (sigaretlar, sigaralar, tamaki)
- **Elektronika va smartfonlar** (Apple, Samsung, Sony)
- **Mahalliy mahsulotlar** (Turkish Delight, yapon choyi, turk choyi, anor sharbati)

Tovar turi	Limit
Spirтли ichimliklar	1 litr kuchli ichimlik (viski, aroq) + 2 litr pastalkogolli sharob
Tamaki mahsulotlari	600 dona sigaret yoki 100 sigar yoki 250 gram tamaki
Parfyumeriya	600 ml gacha
Sovg'alar va boshqa tovarlar	Umumiy qiymati 430 yevrogacha (avia yo'lovchilari uchun)

1-jadval. Turkiya davlatida bojsiz olib kirish normalari to'g'risida ma'lumot

Grand Duty Free tajribasi (Istanbul Havalimani) Istanbul yangi aeroportida dunyodagi eng katta duty free zonalaridan biri — **55,000 kv.m. dan ortiq maydon**. Bu zonada 100 dan ortiq **yirik xalqaro va mahalliy brendlar** joylashgan: Chanel, Gucci, Versace, Turkish Delight, Mavi, LC Waikiki. "Old Bazaar" deb nomlangan qismda **Turkiy an'anaviy dizayni** asosida yaratilgan do'konlar mavjud.

18 yoshdan kichiklarga spirтли ichimlik va tamaki mahsulotlari sotilmaydi. Turkiyaga kirishda ham, chiqishda ham Duty Free xarid qilishingiz mumkin.

Xulosa

Yuqorida Turkiya boj olinmaydigan savdo tizimida bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bo'yicha ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi hamda boj olinmaydigan savdo do'konlari faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi **takliflar beriladi**:

Turkiya tajribasidan: Grand Duty Free tajribasini aeroportlarimizda joriy etish;

Boj olinmaydigan savdo do'konlarida joylashtirilgan tovarlarni yagona sayt yoki ilova orqali oldindan buyurtma berish va aeroportdan olib ketish xizmatini yo'lga qo'yish;

Boj olinmaydigan savdo do'konlaridqa chet el tovarlari bilan bir qatorda mamlakatning mahallaviy dizaynini o'zida namoyon etadigan mahalliy brendlar realizatsiyasini ko'paytirish;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyati jahon tajribalariga implementatsiya qilish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/2876354>
2. www.unifree.com.tr sayti ma'lumotlari
3. www.ticaret.gov.tr sayti ma'lumotlari